

**Dilnoz Jo'rayeva Raxmidinovna,**

**Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi**

**Тел: 91 4039844**

[juraevadilnoza423@gmail.com](mailto:juraevadilnoza423@gmail.com)

## **Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida fanlararo inkorporatsion bog'liqlikni ta'minlashning nazariy asoslari**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslari orqali fanlararo inkorporatsion bog'liqlikni ta'minlashning nazariy asoslari texnologiya darsliklari asosida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** texnologiya darslari, inkorporatsiya, integrasiya, kasb tanlash, kasb-hunarga yo'naltirish, modeler, konstruktor, bichiqchi

**Kirish:** Bugungi kunda respublikamizda ta'lim sohasida individual topshiriqlardan foydalanishning me'yoriy-huquqiy bazasini tubdan takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalar, ilmiy izlanishlar va texnologiyalarni boshlang'ich ta'lim jarayonlari faoliyatiga integratsiya qilish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini o'stirishda foydalanib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha 2017-yil 7-fevraldagi "Harakatlar strategiyasi" bu ta'lim sohasidagi ishlar uchun yangi davrni boshlab berdi. Va uning mantiqan davomi bo'gan yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Taraqqiyot strategiyasi" muhim ahamiyatga egadir. Taraqqiyot strategiyasida "ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish" ustuvor vazifa sifatida belgilab berildi. Shubhasiz, bu ta'lim sohasi uchun dasturulamal bo'lib xizmat qiladi. Har bir yosh avlodni zamon ruhida, o'z fikri va tafakkuriga ega, dunyo minbarlarida qo'rqmasdan, dadil so'zlay oladigan etib ulg'aytirish dolzarb vazifadir. Bu vazifalarni bajarish avvalo maktabdan, boshlang'ich sinfdan boshlanishi maqsada muvofiq bo'ladi. Bu esa boshlang'ich sinf o'qituvchilari zimmasiga muhim

vazifalarni yuklaydi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Ta‘lim jarayonida natijaviylikka erishish bo‘yicha o‘quvchilarni har tomonlama intellektual, aqliy va ijodiy tafakkurni o‘stirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, innovatsion qarashlardan foydalanish imkoniyatlarini ta‘minlash, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish” kabi muhim vazifalar aniqlangan. Umumiy o‘rta ta‘lim tizimi o‘quvchi shaxsini shakllantirish va uning kasb-hunar tanlashida muhim davr hisoblanadi. Shu ma‘noda aytish mumkinki, Umumiy o‘rta ta‘lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo‘naltirishga va ta‘limning navbatdagi bosqichi tanlashga ko‘maklashadi.

Kasbni to‘g‘ri tanlash inson hayotida muhim qadam hisoblanib, yosh avlodning butun umridagi muvaffaqiyati ko‘p jihatdan kasbning qanchalik to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liq. Kasb to‘g‘ri tanlanganda ular o‘z qobiliyatlari va qiziqishlarini yaxshiroq ro‘yobga chiqarishlari hamda jamiyatga ko‘proq manfaat olib kelishlari mumkin.

Kasbni to‘g‘ri tanlash har bir maktab o‘quvchisining qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga, uning sog‘ligi, o‘zlashtirishi va hissiyotlariga mos bo‘lishi kerak. Ushbu sifatlar o‘quvchining turli faoliyati davomida rivojlanadi va namoyon bo‘ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** N.A. Muslimov, Sh.S. Sharipov, O.A. Qo‘ysinovlarning “Mehnat ta‘limi o‘qitish metodikasi, kasb tanlashga yo‘llash” darsligida umumiy o‘rta ta‘lim maktab o‘quvchilarini «Mehnat ta‘limi» fanidan metallga, yog‘ochga va gazlamaga ishlov berish texnologivalari, pazandachilik va qishloq xo‘jaligi asoslari yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qitish uchun pedagogika, psixologiya va maxsus fanlardan olgan bilimlarini mujassamlashtirish bilan birga tanlagan ixtisosliklari bo‘yicha ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va amalga oshirish yo‘llari bayon qilingan.

Kasbga yonaltirish ishlarining ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqishga P.P. Blonskiy, A.S. Makarenko kabi atoqli rus olimlari muhim hissa qo'shganlar. Ular o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlarining psixologik-pedagogik asoslarini yaratish, uning keyingi taraqqiyoti uchun sharoit yaratib berdilar. Kasbga yo'naltirish ishlari politexnik ta'lim, mehnat ta'limi va tarbiyasi bilan uzviy aloqadorlikda olib borildi.

Z.D.Rasulova, Sh.H.Quliyeva, A.R.Jo'rayevlarning "Texnologiya fanini o'qitish metodikasi" darsligida kasb tanlashga yo'naltirish bo'limlari: o'quvchilar kasblar tasnifi, kasblarda mehnat turlarining ta'rifi; qo'l mehnatidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan kasblar; kasb-hunar egallashda inson salomatligiga qo'yiladigan talablar haqida fikr yuritilgan.

Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida o'quvchilarga turli mavzularda bilimlar berish mobaynida o'qituvchi "inkorporatsiya" ga murojaat qiladi. "Inkorporatsiya" tushunchasi "integratsiya" tushunchasi bilan ma'nodosh tushuncha bo'lsada, "inkorporatsiya" integratsiyaga nisbatan kengroq qo'llanadi. Ya'ni "inkorporatsiya" nafaqat fanlarni balki ma'lum kasb-hunar sohalarni ham bir-biriga bog'laydi. Boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarda kasb-hunar haqidagi bilimlarni shakllantirish o'qituvchi oldida turgan muhim masaladir. Shu sababdan boshlang'ich sinf 1-2-3-4 sinf darsliklari, milliy o'quv dasturi asosida yangilandi va unda o'quvchilarga ko'proq kasb-hunarga oid ma'lumotlar ko'p. Masalan: 4-sinf texnologiya darsligining 46-betidagi 5- mavzu "Tikuvchilik fabrikasi" haqida. Bu mavzu asosida o'quvchilarni

- Tikuvchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish operatori, ya'ni tikuvchi;
  - Modelyer – bu kiyim ko'rinishini yaratadigan, modaning yangi uslub va yo'nalishlarini o'ylab topadigan odam;
  - Konstruktor – dizaynning g'oyalarini hayotga tadbiq qiladigan mutaxassis;
  - Bichiqchi - matoni andaza asosida qirqish bilan shug'ullanadigan mutaxassis haqida ma'lumotlar berilib, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltiradi.
- Bu mavzu asosida o'quvchilar turli kasblar haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

O'qituvchi har bir kasb egalari tayyorlagan hunarmandchilik ishlaridan namuna ko'rsatsa yoki hunarmandchilik markazlariga sayohat uyushtirsa, o'quvchilar yanada kengroq bilimlarga ega bo'ladilar. O'quvchilar ham o'zlari qiziqqan hunarni hunarmandchilik markazida o'rganishlari uchun ham imkoniyat yaratib berish lozim. Bu ham o'quvchining kasbga bo'lgan layoqatini va qiziqishini o'stiradi. O'qituvchi mavzu asosida savol-javob, suhbat o'tkazgandan so'ng amaliy ishda berilgan kompozitsiyalarni o'quvchilar bilan birgalikda bajaradilar. O'qituvchi o'quvchilarga yana mavzu asosida qiziqarli qo'shimcha topshiriqlar ham berishi mumkin. Bu mavzuning yanada mustahkam bo'lishini ta'minlaydi.

### Xulosa

Texnologiya o'quv predmeti o'quvchilarda texnik ijodkorlikni, qobiliyatni, tafakkurni rivojlantirish, dars jarayonida tabiiy, metall va metallmas materiallarga texnologiya asosida ishlov berish usullarini o'rgatish orqali kasb-hunarga yo'naltirishni yanada kuchaytirish, hunarmandchilik asoslari, ishlab chiqarish va ro'zg'orshunoslik asoslari, elektrotexnika ishlari, elektronika asoslari, ijodiy loyiha tayyorlash texnologiyasi, kasb-hunarga yo'llash bo'yicha o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirishni ko'zda tutgan.

Demak "inkorporatsiya" so'zining ma'nolaridan kelib chiqib ta'lim sohasida bu so'zni "fanlarni bir-biriga bog'lash" deb qarasa xato bo'lmaydi. Bundan tashqari inkorporatsiya o'quvchilarning bilimni bir tizimga solish, umumlashtirishda ham qo'llaniladi.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslarining inkorporatsiya qilishning ahamiyati shundan iboratki, o'quvchiga bir dars orqali bir necha darsga doir ma'lumotlar beriladi. O'quvchida axborot zaxirasi oshadi, bilimi rivojlanadi, fikrlash jaroyoni tezlashadi. Boshlang'ich sinf texnologiya darsliklarini tahlil qilib chiqadigan bo'lsak inkorporatsiya qilishning naqadar kerakligini tushunamiz

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova// <http://www.lex.uz>

2. Milliy o‘quv dasturi “Texnologiya”

3. Ismoilova R.R. “Texnologiya” 1-sinf uchun darslik, “Novda”. Toshkent-2023.

4. Ismoilova R.R. “Texnologiya” 2-sinf uchun darslik, “Novda”. Toshkent-2023.

5. Ismoilova R.R. “Texnologiya” 3-sinf uchun darslik, “Novda”. Toshkent-2023.

6. Ismoilova R.R. “Texnologiya” 4-sinf uchun darslik, “Novda Edutainment”. Toshkent-2023.

